

KONSTITUTSIYA -ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI .

Qo'ldoshova Xurshida Jamshid qizi

Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Konstitutsiya erkin va farovon hayot garovi ekanligi, shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish shakli aks ettirilgan. Konstitutsiyaning barcha moddalarida huquqiy negizlar aks ettirilgan. Fuqaro huquqi davlat muhofazasida ekanligi, Konstitutsiyamiz adolat tamoyillariga mos ravishda tuzulganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi.*

Kalit so'zlar. *Fuqarolik huquqlari, demokratiya, millatlararo totuvlik, Yangi O'zbekiston, adolat tamoyillari, sivilizatsiya, umuminsoniy qadriyatlar.*

Mustaqillikka erishganimizga mana 33 yil bo'lar ekan manashu 33 yil ichida yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo. Fuqarolarimiz tinch totuv yashab davlatlararo munosabatlarimiz yaxshi. Har bir davlat mustaqillikka erishganidan so'ng o'z davlat ramzlari gerbi, bayrog'i, madhiyasi fuqarolik holatlarini tartibga solish uchun konstitutsiyasi, davlat mustaqilligini anglatuvchi pul birligi va davlatni davlat qiladigan tili bo'ladi. Shu bilan birga biz ham o'z davlat ramzlarimiz, konstitutsiyamiz, pul birligimiz va o'z tilimizga egamiz. Zamon rivojlanadi - davlatlar esa yuksalishda davom etadi. Davlatimiz mustaqillikdan so'ng inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga soqiddligimizni tantanali ravishda e'lon qiladi. Demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadriyatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda uni yuksaltirmog'imiz darkor[1]. O'z fuqorosini huquqini, erkinligini, qadriyatini o'ylagan davlatdagina rivojlanish bo'ladi. Insonlarning hayotini ba'zi qonun qoidalar orqali tartibga solishni konstitutsiya o'z zimmasiga oladi. Fuqarolarning turmush tarzi, demokratik erkinliklari, va barcha huquqlaridan erkin foydalanish huquqini konstitutsiyasiya kafolatlaydi.

Davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmi, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga asoslangan holda, O'zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatda hamkorlik, o'zaro qo'llab

quvvatlash, tinch totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilish, foqorolarning munosib hayot kechirishlarini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda konstitutsiyamiz qabul qilindi va amalda joriy qilindi. Bizning yurtimiz serquyosh o'lka, tabiiy iqlim sharoiti qulay. Tabiiy, milliy va yerosti va yerusti foydali qazilmalarga boy o'lkamiz. Foydali qazilmalardan unumli va samarali foydalanish zarurligi, ekologik atrof muhitga va fuqarolar solig'iga zarar yetkazmaslik to'g'risidagi qonun O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida ifodalangan. Lekin unga qanchalik amal qilamiz bu no'malum.

"Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklarini, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas balki kundalik qoida va odatga aylantirilishi shart" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.[2]

Konstitutsiya erkin va farovon hayotimizni, yanada taraqqiy etishining mustahkam poydevoridir. O'zbekiston mutaqil va buyuk davlat sifatida shakllanib jahon mamlakatlari orasida o'zining munosib o'rnini egalladi. Bunday katta muvaffaqiyatlarga erishishimizda Konstitutsiyasiamiz juda katta ahamiyatga ega. Chunki Konstitutsiya necha yillar kutgan mustaqillik yo'limizni farovon hayotimizni, huquq va erkinliklarimizni belgilab beradi. "To'la ishonch bilan aytishim mumkinki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy - huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo'lmagan, erkin va ozod, tinch va osoyishta farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati, barpo etish borasida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda" deya ta'kidlaydi Shavkat Mirziyoyev[3]. Konstitutsiyamizga kiritilgan qonunlar asosida mamlakatimizda qonunchilik tizimi, turli organlar, fuqarolik jamoasi va jamiyati tashkil etildi. Ayni damla barcha sohalarda keng ko'lamda islohotlar amalda. Ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy - madaniyat, harbiy sohalarda yuksalib, yoshlarimiz dunyoqarashi, fikriy nazariyalari kengayib bormoqda. Bularning barchasi bosh qomusimizning say harakatlari natijasidir.

Konstitutsiya – dinamik, ya'ni doimiy harakatdagi, o'sish va rivojlanish jarayonidagi hujjatdir. U hayot jo'shqinligi va o'zgarishlarini o'zida aks ettiradi. Shu ma'noda, xususan, Harakatlar strategiyasi Yangi O'zbekistonning yangi konstitutsiyaviy qiyofasiga asos bo'lib xizmat qildi.[4] Konstitutsiya bir zamonda va bir makonda qotib qoladigan qoidalar yig'indisi emas. U taraqqiyotlar, tadqiqotlar, yangilanish va yasharishga, zamon talablariga mos ravishda yangilanib boradi. Yangi O'zbekiston yangi taraqqiyot demakdir. Bunda O'zbekistonni Konstitutsiya nizomlariga mos ravishda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi. Bu strategiyada fuqarolarning yashash

sharoitini yaxshilash, ishlab chiqarishni rivojlantirish, zavod va fabrikalar qurish, tamirga talab qadimiy obidalarni ta'mirlash, ta'lim tizimini yaxshilash uchun zarur bo'lgan zaruriy asbob uskunalarni chet eldan keltirish, ilmiy texnik masalalarni rivojlantirish, xodimlarining malakaviylik sifatini oshirish va ko'plab islohotlar yo'li ishlab chiqildi.

XXI asrning taraqqiy etgan davlatlari singari bizning davlatimiz ham rivojlanib borar ekan bir qator taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. Davlatimiz rivojida Konstitutsiyada keltirilgan qonunlar ham fuqorolar, ham davlat manfaatlariga asoslangan. O'zbekiston Respublikasini, va uning Konstitutsiyasini har tomonlama rivojlantirib, g'oyaviy jihatdan boyitib, uni ilhomlantirib boyituvchi shaxs bu shubhasiz, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hisoblanadi. Konstitutsiyaviy islohotlarni asosiy tashabbuskori va uni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shayotgan mamlakatimizning keng qamrovli aholisidir.

Asosiy qonunimiz bilan barcha fuqorolar zimmasiga Konstitutsiyasiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr qimmatini hurmat qilish majburiyati yuklangan.[5] Jamiyatimizda kechayotgan turli xulq atvorning negizida ma'naviyat va madaniyat yotadi. Jamiyatning ong va huquqiy madaniyatini shakllantirishda, avvalo bizga har tomonlama o'rnak bo'ladigan o'zida barcha tarbiya va huquqiy negizlarni shakllantirgan malakali mutaxassislar kerak. Bular insonga yoshlikdan shakllantiriladi.

Hech bir qonun yoki qoida o'z o'zidan yuzaga keltirilmaydi. Ularning ham o'ziga xos vazifasi bo'ladi. Shu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ham o'z vazifalari bor. Bular fuqorolik holatlarini tartibga solish, soliq, bojxona xizmatlari, davlatlararo munosabatlar, eksport, import va yana boshqa holatlarni tartibga solish. Birinchi bo'lim, birinchi bob Davlat suvereniteti, 14- modda Davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

Baxtimiz qomusi bo'lgan Konstitutsiyamiz millatidan qat'iy nazar barcha O'zbek xalqi, fuqorosining butun bir imkoniyati va majburiyatlarini o'zida aks ettirgan bo'lib, hali yana uzoq yillar davomida Yangi O'zbekistonning baxt va kelajagi ham buyuk avlodlar uchun munosib xizmat qiladi.[6] Bizning Konstitutsiyamizda ko'rsatilgan qonunlarda millati, dini, e'tiqotidan qat'iy nazar O'zbekiston hududida erkin va farovon yashash huquqi beriladi. Bu chora tadbir qo'shni hududlar o'rtasida do'stona munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatmaslikka qaratilgan. Bizning oliy maqsadimiz doimiy ravishda tinchlik, osoyishtalik hukm surishidir. Millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik tamoyillari hukm suradi. Yangi O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'li davomida davlatlar bilan bo'lgan munosabatlarni yanada kengroq qilishga harakat qilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish - bu shunchaki xohish - istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy -

huquqiy, ijtimoiy - iqtisodiy, ma'naviy -marifiy vaziyatning o'zi taqazo etayotgan, xalqimizning asriy intilishiga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruriyatidir. Yangi O'zbekiston - demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot berishdan iborat bo'lgan davlatdir. Yurtimizni har tomonlama rivojlantirish bizning oliy maqsadimizdir. Vaqt o'tgan sari yurtimiz rivojlanib yangi yangi islohotlarni talab qilib bormoqda. Zamonning tezkorlik bilan rivojlanishi oldimizga yanada kattaroq vazifalarni qo'yib bormoqda. Shuning uchun ham biz doimo izlanishda va intilishda bo'lmog'imiz zarur. Albatta bu izlanish davomida xato va kamchiliklar bo'ladi lekin bu bizga saboq bo'lmog'i kerak.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, fuqarolik holatlarini, davlatlararo munosabatlarini tartibga solishda bizda Konstitutsiya juda ham zarur. Konstitutsiyada tenglik, adolat, birdamlik, fuqorolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi. Konstitutsiyaning har bir moddasida fuqorolarning huquqlarini himoya qilish ko'zda tutilgan. Fuqorolar davlat boshqaruvidan mamnun bo'lar ekan davlat taraqqiy etadi, davlat yuksaladi, davlat yangilana oladi, davlat raqobat qila oladi. Fuqoro va davlat o'zaro kengashib ish tuta olar ekan hech bir yovuz kuch u davlatni yenga olmaydi. Bularning barchasi Konstitutsiyamizning adolatli doidalarida aks etgan. Konstitutsiya bizning adolatli qonunimiz va qomusimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "O'zbekiston" Toshkent - 2023
2. Shavkat Mirziyoyev " Bilimli avlod - buyuk kelajakning, tadbirkor xalq - farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning afolatidir" Toshkent " O'zbekiston "- 2019.
3. [https:// constitution.uz/oz/pages/prezident_maruzasi_25yil](https://constitution.uz/oz/pages/prezident_maruzasi_25yil) 14.11.2024 y qaralgan
4. <http://VV VV VV .insonhuquqlari.uz/oz/neVVVs/m 14205> 14.11.2024 y
5. <https://yuz.uz/uz/neVVVs /konstitutsiya -asosiy - qonunimiz> 14.11.2024 y
6. Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar ,keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda " " O'qituvchi " Toshkent - 2021.